

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-soni)**



FILOLOGIYA

PHILOLOGY

**ZOOSIMVOLIK OBRAZLAR SHAKLLANISHIDA KOGNITIV
MEXANIZMLARNING ROLI (fransuz tili misolida)**

Qo‘chqorova Sadoqat Toshpo‘latovna

DSc doktoranti

Fransuz filologiyasi kafedrasи

Samarqand davlat chet tillar instituti

email: sadokatkuchkorova@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada inson tafakkurida hayvon obrazlarining shakllanishida ishtirok etuvchi kognitiv mexanizmlar tahlil qilinadi. Kognitiv mexanizmlar – bu tashqi olamdan keladigan axborotni qabul qilish, idrok etish, baholash, talqin qilish va shu asosda qaror qabul qilish kabi psixolingvistik va neyrobiologik jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Zoosimvollar insonning hayvonlarga oid kuzatuvlariga asoslangan tajribasidan kelib chiqib, kognitiv model, metafora, assotsiatsiya orqali shakllanadi. Bu obrazlar madaniy va tarixiy omillar bilan uyg‘unlashgan holda kontseptual xaritalash, kategoriyalashtirish kabi jarayonlar orqali ongda mustahkamlanadi. Maqolada metaforik modellashtirish, kognitiv proyektsiya, assotsiatsiyalash va inferentsiya kabi jarayonlarning zoosimvol birliklari shakllanishidagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari hayvon obrazlarining inson tafakkuridagi semantik va konseptual xususiyatlarini anglashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, lingvistik va kognitiv tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Kognitiv mexanizmlar, zoosimvol, metaforik modellashtirish, kategoriyalashtirish, assotsiatsiya, konseptual xaritalash

**РОЛЬ КОГНИТИВНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ФОРМИРОВАНИИ
ЗООСИМВОЛИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ (на примере французского языка)**

Аннотация В данной статье рассматриваются когнитивные механизмы, участвующие в формировании образов животных в человеческом мышлении. Когнитивные механизмы включают в себя психолингвистические и нейробиологические процессы восприятия, оценки, интерпретации поступающей информации и принятия решений на её основе. Зоосимволы формируются на основе наблюдений человека за поведением животных, при этом активизируются такие механизмы, как когнитивное моделирование, метафора и ассоциация. Эти образы, будучи укоренёнными в культурном и историческом контексте, закрепляются в сознании посредством концептуального картирования и категоризации. В статье освещается роль процессов

метафорического моделирования, когнитивной проекции, ассоциативности и инференции в формировании зоосимволических единиц. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию семантических и концептуальных особенностей образов животных в сознании человека и служат основой для дальнейших лингвистических и когнитивных исследований.

Ключевые слова: когнитивные механизмы, зоосимвол, метафорическое моделирование, категоризация, ассоциация, концептуальное картирование

THE ROLE OF COGNITIVE MECHANISMS IN THE FORMATION OF ZOOMORPHIC IMAGES (with examples from the French language)

Abstract This article examines the cognitive mechanisms involved in the formation of animal imagery in human thinking. Cognitive mechanisms encompass psycholinguistic and neurobiological processes such as perception, evaluation, interpretation of incoming information, and decision-making based on it. Zoomorphic symbols are formed through human observations of animal behavior, engaging mechanisms such as cognitive modeling, metaphor, and association. These images, rooted in cultural and historical contexts, become established in the mind through conceptual mapping and categorization. The article highlights the role of metaphorical modeling, cognitive projection, associativity, and inference in the formation of zoomorphic symbolic units. The findings contribute to a deeper understanding of the semantic and conceptual characteristics of animal imagery in human cognition and serve as a foundation for further linguistic and cognitive research.

Key words: Cognitive mechanisms, Zoo symbol, Metaphorical modeling, Categorization, Association, Conceptual mapping

Kirish (Introduction). Til – inson tafakkuri ifodasi vositasi sifatida ma’no yaratish jarayonlarida kognitiv mexanizmlarga tayanadi. Shu nuqtai nazardan, zoosimvollar, ya’ni biror hayvon obrazi orqali shakllangan simvolik ma’no inson ongida ma’lum bir kognitiv jarayonlar asosida vujudga keladi va turli lisoniy vositalar orqali namoyon bo‘ladi.

Kognitiv mexanizmlar – bu inson va hayvonlardagi axborotni qabul qilish, qayta ishslash, xotirada saqlash, qaror qabul qilish va xulosa chiqarish kabi intellektual jarayonlarni amalga oshirishga yordam beradigan psixologik va neyrobiologik, boshqacha aytganda, tashqi olamdan keladigan ma’lumotni qabul qilish, uni idrok etish (pertseptsiya), baholash (evalyuatsiya) va talqin qilish (interpretatsiya), shuningdek, shu asosda xulq-atvorga ta’sir etuvchi qarorlar chiqarish jarayonlarini o‘z ichiga oluvchi psixolingistik va kognitiv jarayonlar tizimidir [1, 2]. Kognitiv faoliyatning miyadagi biologik mexanizmlari e’tibor, xotira, til kabi faoliyatga oid miya nevronlarining o‘zaro aloqador tarmoqlari orqali boshqariladi [3].

Usullar (Methods). Maqolada metaforik modellashtirish, kognitiv proyektsiya, assotsiatsiyalash va inferentsiya kabi jarayonlarning zoosimvol birliklari shakllanishidagi o‘rnini yoritiladi. Tadqiqotda fransuz tilida matnlar taҳlil қилиниб, kognitiv yondashuv asosida

zoosimvol birliklar qanday shakllanishi o‘rganildi. Asosiy metod sifatida konseptual metafora nazariysi va assotsiativ tahlil qo‘llanildi.

Natijalar (Results). Hayvon obrazlari tajribaga asoslangan kognitiv model, metafora, assotsiatsiya kabi mexanizmlar orqali inson tafakkurida shakllanadi. Inson hayvonlarni kuzatib, ularning xulq-atvori, turli vaziyatdagi xatti-harakatlariga asoslanib, muayyan ma’nolar bilan bog‘laydi. Bunday zoosimvollar madaniy va tarixiy jihatdan kontseptual xaritalash va kategorizatsiya mexanizmlari asosida shakllanadi hamda olam manzarasining bir qismi sifatida ham xizmat qiladi. Zoosimvolga oid birliklar shakllanishida metaforik modellashtirish, kognitiv proyektsiya, assotsiatsiyalash, kategoriyalashtirish va inferentsiya kabi kognitiv mexanizmlar birlamchi o‘rin tutadi [Иляс 2004; Мерзликина 2021; Дыбо 2019]. Metaforik modellashtirish (Metaphorical modelling)ning mohiyati “ifodada eksplitsit tarzda berilgan mazmunga qo‘sishma ravishda implitsit parallel ma’nolarni ochib berishdan iborat” bo‘lib [Феденева 2000], bunday modellar tizimi milliy til manzarasining, milliy ongning muhim qismi sifatida tegishli xalq tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir [Чудинов 2003]. Zoomorf o‘xshatish va zoometaforalar yasalishida metaforik modellashtirish orqali hayvon xususiyatlari inson yoki boshqa ob’ektlarga o‘tkazilib, murakkab tushunchalarni anglash va tavsiflashda qo‘llaniladi, shuningdek, yaqqol va xotirada saqlanuvchi obrazlar yaratishga xizmat qiladi.

Xulq-atvorga oid metaforik modellashtirishda inson harakatlarini hayvonlar orqali qayta tasvirlash orqali yangi ma’no yaratiladi: *Comme un serpent qui roule et déroule ses anneaux pour se rendre compte à lui-même de sa force, elle enveloppait d'avance Felton dans les mille replis de son inventive imagination* (AD) – ilon xalqalarining burama harakati murakkab aqliy jarayonga ko‘chirilgan. Bu ayol tomonidan amalga oshirilayotgan aqliy manipulyatsiyani tasvirlaydi.

Kognitiv mexanizm sifatida kognitiv proyektsiya kognitiv makonda unsurlarning ongli tarzda qayta shakllangan integratsiyasi deb qaralishi mumkin. Bu esa kreativ qarorlar qabul qilish va yangi tushunchalarni shakllantirish imkonini beradi [Колмогорова 2020]. Kognitiv proyektsiya zoomorf birliklarda ularning ma’nolarini mo‘tadil muloqotga moslashtirishda muhim rol o‘ynaydi. U ifoda ma’nosini o‘zgartirish, undan anglashilgan ehtimoliy ziddiyatni yumshatish, madaniy qadriyatlarga asoslangan holda yangi talqinlar yaratish va muloqotdagи yengillikni ta’minlash imkonini beradi: *Ou bien il me semblait être gardé par mon feu débonnaire (cheminée (изоҳ муаллифнику)) comme par un chien de berger actif, fidèle et diligent, et qui faisait bien son ouvrage* (SE) – ushbu o‘xshatish orqali “feu débonnaire” ya’ni kamindagi olovga cho‘pon itiga xos ijobiy xususiyatlar tenglashtirilgan: actif (faol): olov doimo harakatda, tirik kuch; fidèle (sadoqatli): olov issiqlik manbai sifatida himoya manbai bo‘lgan; diligent (intizomli, qat’iy): olov topshiriqni aniq va shijoat bilan bajaradi; qui faisait bien son ouvrage: olovning vazifasi – isitish, himoya qilish, yoritish va buni cho‘pon itiga o‘xshab mukammal bajaradi. Kognitiv proyektsiya orqali, kamindagi olov faqat issiqlik manbai emas, balki cho‘pon iti kabi insonni himoya qiluvchi, uning yon atrofida sadoqat bilan xizmat qiluvchi kuch sifatida qayta modellangan. Sur le premier gobelet on lisait cette inscription : *vin de singe*,

sur le deuxième : *vin de lion*, sur le troisième : *vin de mouton*, sur le quatrième : *vin de cochon*. Ces quatre légendes exprimaient les quatre degrés que descend l’ivrogne : la première *ivresse, celle qui égaye ; la deuxième, celle qui irrite ; la troisième, celle qui hébète ; la dernière enfin, celle qui abrutit* (VH) – har bir hayvonga xos xususiyatlar vino ta’siridagi inson holatiga yuklangan. Masalan, maymun – quvnoqlik, arslon – tajovuzkorlik, qo‘y – passivlik, cho‘chqa – pastkashlik timsoli kabi his-tuyg‘u va holatlar mastlikning turli darajalari bilan bog‘langan hamda ushbu abstrakt tushunchalar real hayvonlar orqali ifodalangan. Bu proyektsiya mastlik jarayonini hayvonlar orqali sodda va ta’sirchan qilib tushuntirishga yordam beradi.

Assotsiatsiya – bu faqtgina real obraz bilan bog‘langan mental tasvir emas, balki kognitiv jarayonlar zanjirini boshlab beruvchi muayyan impulsdir. Assotsiativ jarayon individual xotirada yorqin aks etgan o‘tmish tajribasiga tayanuvchi hissiy xotira (ko‘rish, eshitish, taktil, kinestetik hislar) va tasavvurni faollashtiradi. Til birligining aytilgan yoki qabul qilingan shakli ongda butun bir obraz va tushunchalar majmuasini faollashtiradi, bu esa kontseptning assotsiativ maydonini shakllantiradi [Плахотная 2021]. Zoomorf metaforalarning shakllanishi hayvon va inson obrazi o‘rtasidagi assotsiatsiyalarga asoslanadi. Bunday bog‘lanishlar umumiy hamda madaniy jihatdan xususiy bo‘lgani holda ularning ma’no doirasini kengaytiradi: Un excepté pourtant. C’était un visage fin, intelligent, rusé, une espèce de museau de singe et de diplomate (VH); Emotsional zoomorf assotsiatsiya bu, – inson yoki vaziyatga hissiy holatlar, madaniy aksiologik baho va hayvonlarga xos xulq-atvor namunalarini metafora yo‘li bilan ko‘chirish jarayonidir. Bu jarayon antropotsentrik tafakkurga asoslangan bo‘lib, unda hayvonlarning tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori va ramziy ma’nolari inson hissiyoti va ichki holatini ifodalaydi [Силинская 2015]: Montparnasse avait l’attitude humiliée et furieuse d’un loup qui serait happé par un mouton (VH) – odatda bo‘ri g‘urur, kuch va mustaqillik timsoli sifatida qaraladi. Bo‘riga muayyan vaziyatdagi xos hissiy holatlar – kuchsiz qo‘ydan yengilish sifatidagi tahqirlanish, shuningdek, g‘azab Monparnasning holatiga ko‘chiriladi, shu tarzda unga xos ruhiy azobning yorqin ifodasi orqali o‘quvchida emotsiyal dissonans (qarama-qarshi tuyg‘ular) hosil bo‘ladi.

Kognitiv yondashuvda *kategoriyalashtirish* bu, – kognitiv jarayonlar va til o‘rtasidagi bog‘lovchi fundamental mexanizm bo‘lib, u tafakkur va muloqot tuzilmasini anglash uchun asos hisoblanadi [Журавлёв 2017]. Kategoriyalashtirish kontseptualizatsiya jarayonida faol ishtirok etib, ob’ektlarni umumiy belgilar asosida guruhlashadir va barqaror semantik maydonlarni shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayon zoomorf birliklar ifodasida ham yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki hayvonlar muayyan sifatlar yoki xulq-atvor modellarining kognitiv ramzi sifatida talqin qilinadi. Masalan, “arslon” – qudrat va hokimiyat timsoli, “tulki” – ayyorlik obraziga aylanishi kategorizatsiya jarayonining natijasi bo‘lib, ular muayyan hayvonlar bilan bog‘liq kognitiv modellar va stereotiplarni mustahkamlaydi: Et il continua son chemin ... avec la sagacité du renard flairant une compagnie de perdrix. (VH) – inson — “aqli va ehtirotkor” shaxs sifatida tulki obrazi orqali ifodalananadi. Bu — aql va hushyorlik kategoriyasi. Yoki Ils sont insouciants et indolents comme des chats. Le bas peuple des provinces est remuant, celui

de Paris ne l'est pas (VH) misolida Parij quyi qatlami aholisi mushuklar singari beg‘am va befarq, o‘z holicha yashovchi kabi muayyan kategoriyaga kiritiladi. Shuningdek, zoomorf birliklar madaniy xususiyatlarga qarab turlicha shakllanishi mumkin, bu esa kategorizatsiya va madaniy kontseptual manzara o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi. Masalan, Yevropa madaniyatida boyqush donolik ramzi bo‘lib xizmat qilsa, o‘zbek madaniyatida baxtsizlik va vayronagarchilik mazmuniga ishora beradi. Demak, kategorizatsiya statik jarayon emas, balki kognitiv mexanizmlar va madaniy an'analar ta'sirida dinamik ravishda o‘zgaradigan tizimdir, degan xulosaga kelish mumkin.

Kognitiv mexanizm sifatida inferentsiya (inferential reasoning) – ma’no shakllanishiga ko‘maklashuvchi muhim kognitiv mexanizmlardan biri bo‘lib, uning natijasida inson til birliklarining faqatgina denotativ ma’nosini bilan cheklanmay, uning chegaralaridan tashqariga chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Inferentsiyaning asosida kundalik ong mantig‘i yotadi, u ratsional xarakterga ega bo‘lib, garchi haqiqatni isbotlash jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lmasa-da, unga ma'lum darajada tayanadi. Bu jarayon insonga xos sog‘lom fikrlash qobiliyati, analogiya asosida mulohaza yuritish, taxmin va farazlar qilish, shuningdek, mavjud tajriba negizida xulosa chiqarish kabi kognitiv operatsiyalarni o‘z ichiga oladi [Серова 2007]. Zoomorf birliklarni anglash hayvon va inson xususiyatlari o‘rtasidagi yashirin bog‘lanishlarni aniqlashni talab qiladi. Bu jarayon qabul qiluvchini bevosita ma‘nodan tashqaridagi yangi mazmunni anglash va talqin qilishga yo‘naltiradi: *il recula jusqu’à la ruelle, comme il eût fait à l’approche d’un serpent qui eût rampé vers lui* (AD) – ilon xavf, qo‘rquv, tahdid bilan bog‘liq ramziy ma’noga ega va inson kimnidir yoki nimanidir shunchalik tahlikali deb biladiki, u xuddi ilon yaqinlashayotgandek orqaga chekinadi. Qabul qiluvchi matndagi qo‘rquv va tahdid mazmuni xususida ilonga bog‘langan hissiy reaktsiya orqali xulosa chiqaradi. Comme le sanglier, *donnant le coup de boutoir et renversant tout ce qui se trouve devant lui, la colonne s’élança alors dans la rue et culbuta tout ce qu’elle trouva devant elle* (AD) – harbiy kolonnaning yo‘lida uchraydigan har qanday narsani vayron qilishi kuchli yirtqich hisoblanadigan yovvoyi cho‘chqaning harakatiga o‘xshatiladi. Kolonnaning qudrati xususida aytilmagan bo‘lsa-da, to‘ng‘izning “coup de boutoir” — ya’ni, old qoziq tishlari bilan buzib tashlash harakati natijasini o‘quvchi his qiladi va kolonnaning kuchi haqida xulosa chiqaradi.

Muhokama (Discussion). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zoosimvolik birliklarning shakllanishida kognitiv mexanizmlar – metaforik modellashtirish, assotsiatsiyalash, kognitiv proyektsiya, inferentsiya va kategoriyalashtirish – o‘zaro bog‘langan holda faol ishtirop etadi. Ushbu jarayonlar orqali inson tafakkuri o‘z tajribasini, madaniy qadriyatlarini va emotsiyal holatini tildagi hayvon obrazlari orqali ifoda etadi. Metaforik modellashtirish orqali hayvonlarga xos belgilar insoniy sifatlar bilan bog‘lanadi. Assotsiatsiyalash hayvon obrazlarini stereotipik tushunchalar билан birlashtiradi. Kognitiv proyektsiya orqali esa inson o‘z holatini tashqi obrazlarga ko‘chiradi. Inferentsiya kontekst asosida yangi ma’nolar hosil qiladi, kategoriyalashtirish esa bu obrazlarning semantik tizimdagagi o‘rnini belgilaydi.

Xulosa (Conclusion). Tadqiqot davomida zoosimvolik birliklarning shakllanishida asosiy kognitiv mexanizmlar – metaforik modellashtirish, proyektsiya, assotsiatsiya, inferentsiya va kategoriyalashtirish — misollar asosida tahlil qilindi. Ushbu mexanizmlar hayvon obrazlarini til orqali nafaqat ifodalash, balki ularni madaniy va kontseptual mazmun bilan boyitishda ham muhim rol o‘ynaydi. Zoomorf birliklar inson tajribasi va madaniy stereotiplarga asoslanib, semantik boylik va psixologik ta’sirchanlikni ta’minlaydi. Fransuz tilidagi zoometaforalar orqali emotsiyal holat, baho, ijtimoiy pozitsiya va qadriyatlar ifoda topadi. Tadqiqot natijalari til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritish va madaniyatlararo qiyosiy tadqiqotlar uchun ilmiy asos yaratishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ильяс У. Зооморфная метафора, характеризующая человека, в русском и турецком языках: Автореф. дис.... кандидата филол. наук. – Екатеринбург, 2004. – 25 с.;
2. О.В. Мерзликина. Зооморфные метафоры «домашний скот» в русской и галисийской языковых картинах мира//Вестник Томского государственного университета. Филология. 2021. № 71. – С. 114-132.;
3. Дыбо А.В., Никуленко Е.В. Зооморфная метафора «медведь» в русском, английском и языках Южной Сибири // Язык и культура. 2019. № 45. С. 78–95.
4. Феденева, Ю.Б. Политическая метафора: эволюция прагматики / Ю.Б. Феденева // Лингвистика: Бюллетень Уральского лингвистического общества. – Т. 4. – Екатеринбург, 2000. – С. 76–81
5. Чудинов, А.П. Политическая лингвистика (общие проблемы, метафора) / А.П. Чудинов. – Екатеринбург, 2003. – С. 64. (194 с.)
6. Колмогорова А.В. Когнитивный механизм порождения креативных решений в переводческой деятельности//Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 2: Языкоzнание 2020.
7. Плахотная Ю. И. Ассоциация как механизм когнитивной деятельности в формировании концептуальной картины мира // Вестник Кемеровского государственного университета. 2021. Т. 23. № 2. С. 541–550.
8. Силинская Н.П. Зооморфная метафора как средство концептуализации отрицательных эмоций в английской фразеологии/ Международный научно-исследовательский журнал, № 10 (41), Част 5, 2015. – С.91- 92
9. Журавлёв А.П. Категоризация действительности как часть когнитивной функции языка// Известия Самарского научного центра Российской академии наук. Социальные, гуманитарные, медико-биологические науки, т. 19, №5, 2017. С. 62-66.
10. Серова И.Г. Когнитивные механизмы формирования гендерных смыслов/ Вопросы когнитивной лингвистики. № 4 (013), 2007. – С.92-97.